XALQ DEPUTATLARI SHEROBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-025-8-119-K/24 Sherobod tumani

Sherobod tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2024 yil 24 dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuniga va xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2024 yil 27 dekabrdagi VII-3-106-8-0-K/24-son qaroriga muvofiq hamda Surxondaryo viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024 yil 26 dekabrdagi 22-13/984 sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Sherobod tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2024 yil 27 dekabrdagi VII-3-106-8-0-K/24-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Mazkur qarorga muvofiq, Sherobod tumani mahalliy budjetining 2025 yilgi daromadlari **121 mlrd. 179 mln. 840 ming** so‘m va shunga mos ravishda xarajatlari ham **121 mlrd. 179 mln. 840 ming** so‘m miqdorida tasdiqlanganligi, hamda Sherobod tumani mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **354 mln. 140 ming** so‘m etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3.Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025 yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman mahalliy budjetidan 2025 yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, shuningdek Sherobod tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq, mahalliy budjetlarning 2025-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi 4-ilovaga muvofiq, mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4.Tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025 yil uchun **1 mlrd. 671 mln. so‘m** miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5.Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig’i U.Xamroyev, tuman soliq inspeksiyasi boshlig’i B.Akramov bilan birgalikda 2025 yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6.Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardanmaqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziqovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

7.Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8.Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Sherobod tuman Kengashining mahalliy budjet tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari doimiy komissiyasi (A. Choriyev) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig’i U.Xamroyev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



ALIMOV USMON IBROXIMOVICH

Xalq deputatlari Sherobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-025-8-119-K/24 -son qaroriga
1-ilova

2025 yil uchun Sherobod tumani bo‘yicha mahalliy budjet daromadlarining reja ko‘rsatkichlari

№	Daromad turlari	ming so‘mda
	JAMI	**121 179 840**
1	Foyda solig‘i	0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	9 121 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	33 938 840
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 037 000
	Aksiz solig‘i jami	0
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	*0*
	pivo	*0*
5	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	*0*
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 556 000
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	8 397 000
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	23 398 000
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	26 038 000
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	1 370 000
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 924 000
12	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0
13	Davlat boji	8 241 000
14	Yig‘imlar	3 090 000
15	Jarimalar	0
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	69 000

Xalq deputatlari Sherobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-025-8-119-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025 yil uchun Sherobod tuman byudjetidan birinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan ajratmalarining cheklangan miqdorlari

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	ming so‘mda
	Xarajatlar miqdori, jami	**121 179 840**
1	**Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi**	*32 617 381*
	shundan:	
	"Mening maktabim"	*4 574 212*
2	**Tibbiyot birlashmasi**	*0*
	shundan:	
	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi markazi	*0*
3	**Madaniyat bo‘limi**	*3 651 710*
4	**Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi**	*5 263 003*
5	**Sport bo‘limi**	*4 410 973*
6	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi**	*2 212 607*
7	**Xayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat maxsulotlari xavfsizligi davlat markaz**	*440 434*
8	**Fermerlar xo‘jaliklari buxgalteriya markazi**	*805 660*
9	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi**	*2 201 243*
10	**Irrigatsiya bo‘limi**	*1 977 641*
11	**Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari**	*2 129 586*
12	**Davlat soliq inspeksiyasi**	*0*
13	**Boshqaruv organlari tashkilotlari**	*44 096 767*
	Shundan:	
	Hokimyat	*3 207 749*
	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	*2 781 336*
	Hokim yordamchilari	*5 470 157*
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	*61 875*
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	*34 650*

	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*27 646 000*
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*3 224 000*
	Zahira jamg‘armasi	*1 671 000*
14	**Xalq Deputatlari tuman Kengash kotibiyati**	*262 495*
15	**Hokimyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)**	*115 995*
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*115 995*
16	**Axborot-kutubxona markazlari**	*657 161*
17	**Hokimyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)**	20 337 154
18	**Boshqa tashkilotlar**	0

Xalq deputatlari Sherobod tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-025-8-119-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Umum davlat soliqlaridan shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Aylanmadan olinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yakka tartibdagi tadbirkorlarlardan olinadigan qat’iy belgilangan soliq	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	Yig’imlardan tushgan tushumlari	Davlat bojidan tushgan tushumlari	Davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar
1	Sherobod tumani	100	52	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100

Xalq deputatlari Sherobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-025-8-119-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Sherobod tuman mahalliy budjetlarning 2025-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	**Daromad**	**Xarajat**
Sherobod tumani	121 179 840	121 179 840

Xalq deputatlari Sherobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-025-8-119-K/24 -son qaroriga
5-ilova

2025-yilda Sherobod tuman mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	**Hudud nomi**	**Miqdor**
1	Sherobod tumani	**354 140,0**